
Qo'shtepada paxta yig'im-terimi qizg'in pallada

Ayni kunlarda qishloq xo'jaligida qizg'in mehnat pallasasi - paxta yig'im-terimi uyushqoqlik bilan davom etmoqda. Bugun qo'shtepalik dehqon va fermerlar o'zlarining fidoyi mehnatlari bilan yuksak "oq oltin" xirmonini bunyod etishga bel bog'laganlar.

Ilgarilari paxta mavsumini qudratli mashinalarsiz tasavvur etib bo'lmasdi. Keyingi paytlarda esa ularni dalalarda uchratish amrimahol bo'lib qolgandi. Vanihoyat, Qo'shtepa tumani paxtazorlarida ham eng zamonaviy terim agregatlari kuzatilmoqda.







2024-09-17 10:50:54